

## MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Xakimova Diloram Abdusamatovna**

Toshkent shahri Olmazor tumani

24-IDUM matematika fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumta’lim muassasalari matematika darslarida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini orttiradigan va dars sifatini yaxshilaydigan interfaol metodlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Metod, interfaol, o‘qituvchi, zamonaviy, bilim, ta’lim, ijodiy fikrlash.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarni bilim olishi birinchi o‘rinda turishini hamma yaxshi biladi. O‘quvchi o‘qituvchi bergan har bir bilimni yaxshi o‘zlashtirishi uchun turli xil metodlarni qo‘llash lozim. Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi tushuniladi. Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Faqatgina o‘qituvchi emas, balki o‘qituvchi bilan birgalikda o‘quvchi ham faol bo‘lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etilsa, o‘quvchi darsga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi va ta’lim sifati yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o‘tilgan darslar o‘quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni

yoza bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlar orqali o‘tiladigan darslarda an’anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmuni o‘zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya’ni o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo‘lgani kabi interfaol usullarni qo‘llashdan maqsad bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o‘zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o‘quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta’minlaydi. Matematika darslarida interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o‘tishi mumkin. Shuning uchun ham darslarni rangbarang metodlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun “Ko‘paytirish jadvali”ni tushunishida o‘quvchi qiynaladi. Agar bu mavzularni tushuntirishda interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o‘quvchining xotirasiga ham qolishi osonroq bo‘ladi. Matematika darslarida qo‘llaniladigan bir nechta metodlarni ko‘rib chiqamiz.

**Matematika darslarida «Aqliy hujum» metodidan foydalanish. Misol.** 5-sinfda “To‘g‘ri parallelepipedning hajmi” mavzusini boshlashdan oldin, hajm tushunchasini kiritish uchun o‘quvchilarga quyidagi faollashtiruvchi mashqni taqdim qilish mumkin.

**Faollashtiruvchi mashq.** Bo‘yi 20 metr, eni 4 metr va balandligi 4 metr bo‘lgan yuk mashinasining yukxonasiga qirrasini 1 m bo‘lgan kub shaklidagi yashiklardan nechtasini joylash mumkinligini qanday topish mumkin?

Bu savol-topshiriq o‘rtaga tashlanadi va unga javob berish o‘quvchilardan so‘raladi. Unga javob berish jarayoni “aqliy hujum” metodi asosida olib boriladi.

Qo‘yilgan muammoni yechish yoki savolga javob topish maqsadida g‘oyalarni jamlanadi va so‘ng saralanadi. O‘quvchilar birlashgan holda yechimi noma’lum muammoni yechishga yoki savolga javob topishga harakat qiladilar. Eng maqbul yechimni topish bo‘yicha shaxsiy g‘oyalarni ilgari suradilar. Turli yechimlar taqdimoti eshitiladi, yechimlar doskaga yozib boriladi, solishtiriladi va ularning ichidan eng maqbuli tanlanadi. Yakunda xulosa chiqariladi.

### **Matematika darslarida Pazl (“Bo‘laklardan butunni tuz”) metodi.**

Pazl (inglizcha puzzle – topishmoq, boshqotirma) – rasmni uning bo‘laklari yordamida tiklashdan iborat bolalar o‘yining nomi. Shuning uchun bu metod nomini o‘zbek tilida “Bo‘laklardan butunni tuz” deb ham atash mumkin. O‘tilgan mavzuga oid asosiy jumla, formula, teorema, tenglama, chizma va boshqa ko‘rinishidagi asosiy ma’lumotlar qog‘ozga yozilib, so‘ng bir nechta bo‘laklarga bo‘linib aralashtirib yuboriladi. O‘quvchilar bu bo‘laklar ichidan faqat bitta ma’lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar. Bu metod o‘quvchilarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni to‘plash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uni yakka tartibda ham, sinfni guruhlarga bo‘lib ham o‘tkazish mumkin.

Misol. Mavzu: Parallel to‘g‘ri chiziqlar, 7-sinf. “To‘g‘ri chiziqlarning parallellik alomatlari” va “Ikki to‘g‘ri chiziqni uchinchi to‘g‘ri chiziq kesib o‘tganda hosil bo‘ladigan burchaklar haqidagi teoraemalar” mavzulari o‘tib bo‘linganidan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishdagi 24 ta varaqchalar (kartochkalar)dan iborat to‘plam taqdim qilinadi. Bu to‘plamda 6 ta teorema keltirilgan bo‘lib, ularning har bir haqida 4 ta varaqchada ma’lumot berilgan bo‘ladi.

1-kartochkada: teoremaning yozma bayoni; 2-kartochkada: teoreмага mos chizma; 3-kartochkada: teorema sharti va xulosasining qisqacha matematik bayoni; 4-kartochkada: teoremaning matematik isboti yozuvi. Topshiriq: 6 ta o‘quvchiga (yoki guruhga) 6 ta teorema beriladi va taqdim qilingan to‘plam ichidan faqat o‘z teoremasi bo‘yicha ma’lumotlarni to‘la yig‘ish vazifasi topshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkin, yuqorida ko‘rib o‘tgan metodlarimizni dars jarayonida qo‘llasak, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi va ta’lim sifati yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o‘tilgan darslar o‘quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.Sidiqova D.Sh. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. Buxdu.uz
2. Baxtiyor.uz O‘qituvchilar uchun barcha fanlardan metodlar to‘plami
- 3.G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Tafakkur”, 2012.
4. Jumayev M., Tadjiyeva Z. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. –Toshkent.: «Fan va texnologiya», 2005.

